

MARKAZIY OSIYO QADIMGI DAVR SIYOSIY TARIXINING AYRIM MUAMMOLARI

Matyaqubov Xalil Hayitaevich

Nizomiy nomidagi O'zMPU dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya: *Maqolada o'zbek davlatchiligining kelib chiqishi, tarixiy-arxeologik belgilari, O'zbekiston hududida sug'orma dehqonchilik asosidagi shaharsozlik madaniyati markazlarining shakllanishi, ilk davlatchilikning o'rganilishi hamda tadqiqotlarning bugungi darslik va adabiyotlarda aks etishi muammolari ko'rib chiqilgan. Oliy ta'limda ilk davlatchilik masalalarini o'qitishning metodologik asoslari tahlil qilingan.*

Tayanch tushunchalar: *davlatchilik, sug'orma dehqonchilik, shaharsozlik, Sopollitepa, Jarqo'ton, "nom", arxaik davr, Afrosiyob, Baqtriya, Sug'd, "Katta Xorazm", Farg'ona, Turon, Turkiston, Ajam.*

НЕКОТОРЫЕ ПРОБЛЕМЫ ДРЕВНЕЙ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация: *В статье рассматриваются истоки узбекской государственности, её историко-археологические особенности, формирование центров городской культуры на основе орошаемого земледелия в Узбекистане, изучение раннего периода государственности, а также проблемы отражения исследований в современных учебниках и литературе. Анализируются методологические основы преподавания вопросов ранней государственности в высшем образовании.*

Ключевые понятия: *государственность, орошаемое земледелие, градостроение, Сополлитепа, Жаркутан, «ном», архаический период, Афрасиаб, Бактрия, Согд, «Большой Хорезм», Фергана, Туран, Туркестан, Аджам.*

SOME PROBLEMS OF THE ANCIENT POLITICAL HISTORY OF CENTRAL ASIA

Abstract: *The article examines the origins of Uzbek statehood, its historical and archaeological features, the formation of urban cultural centers based on irrigated agriculture in Uzbekistan, the study of the early period of statehood, as well as the problems of reflecting research in modern textbooks and literature. The methodological foundations of teaching issues of early statehood in higher education are analyzed.*

Key concepts: *statehood, irrigated agriculture, urban development, Sopollitepa, Zharkutan, "nom", archaic period, Afrasiab, Bactria, Sogdiana, "Greater Khorezm", Fergana, Turan, Turkestan, Ajam.*

O'rta Osiyoning qadimhi tarixi, ushbu hududda shaharsozlik madaniyati va davlatchilikning tarkib topishi masalasida shu kungacha mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan qator ishlar e'lon qilingan. Xususan, qadimgi Baqtriya tarixi va shaharsozligi bo'yicha G.A. Pugachenkova, A.Asqarov, B.N. Abdullayev, E.V. Rtveladze, A. Sagdullayev, Sh. Shaydullyev, Sug'd tarixi va shaharsozligi bo'yicha G.B. Shishkina, R.H. Sulaymonov, M. Isamiddinov, G.A. Koshelenko, B. Eshov, qadimgi Choch bo'yicha Ya.G'. G'ulomov, V.M.Masson, Yu.F. Buryakov, M.I. Filanovichlarning ishlarini alohida ko'rsatish mumkin.

Ilk davlatchilikning genezisi qadimgi Marg'iyona va qadimgi Baqtriya misolida ayniqsa chuqur o'rganildi. Bu borada M.Ye.Masson, B.G'ofurov, V.M.Masson, I.V.Pyankov, I.N.Xlopin va V.I.Sarianidilarning tadqiqotlari ayniqsa fundamental ahamiyatga ega. So'nggi yillarda taniqli arxeolog olim Sh.Shaydullayev o'zining maqola va monografiyalarida Jarqo'ton yodgorligida olib borilgan stasionar arxeologik tadqiqotlar asosida ushbu shaharni qadimgi Sharqning ilk shahar-davlatlari toifasiga kiritadi va O'rta Osiyoda shahar va davlatlarning paydo bo'lishi hamda rivojlanishini quyidagi davrlarga bo'ladi:

Birinchi davr – “shahar-davlatlar” yoki shahar “nom” (mil. avv. II ming yillik. Jarqo'ton, Dashli 1);

Ikkinchi davr – shahar-hududiy davlat markazi (mil. avv. I ming yillik boshlari). Bunday hududiy davlatlarning markazi sifatida Baqtriyada Qiziltepa, Jondavlattepa, Hayitobodtepa, Farg'onada Dalvarzin, Chust, Ashqoltepa, Sug'dda Ko'ktepa, Podayatoqtepa yodgorliklarini ko'rsatadi.

Uchinchi davr – “shahar-markazlashgan davlatlar va imperiyalar davri”. Bunda Ahamoniylar davridagi markazlashgan davlat yoki imperiyalar poytaxti sifatida Suza, Persepol ko'zda tutilgan bo'lsa, satrapliklar hududidagi shaharlar deb Afrosiyob, Qiziltepa, Hayitobodtepa va Ko'ktepalar keltiriladi. [1]

Qadimgi Farg'ona tarixi va arxeologiyasining ko'zga ko'ringan tadqiqotchisi A.Anorboyev ilk davlatchilikning quyidagi belgilarini qayd qiladi:

1.Har qanday davlat ma'lum bir geografik joyda paydo bo'lib, o'zining hududiy chegaralariga ega bo'ladi;

2.Davlatning asosini bir xil xalq, jamoa tashkil qiladi;

3.Davlat o'zining ma'lum bir yuridik kuchga ega bo'lgan qonun-qoidalariga ega bo'ladi. Masalan, qadimda jamoa oqsoqollari va ma'lum oilalardan chiqqan yuqori tabaqali sardorlar tomonidan tuzilgan yoki kelishib olingan “yuridik” normalar bo'lib, unga jamiyat a'zolarining rioya qilishi shart bo'lgan;

4. Davlat o'z funksiyalarini bajarishi uchun davlat organlariga va moddiy vositalariga ega bo'lishi kerak. Buni Jarqo'tondagi ishlab chiqarish "professionalizmi", monumental binolar, qabrlar va ulardagi buyumlarning farqlanishi, hukmdorlik belgilari, Bo'stonsoy havzasida yuzlab gektar yerlarning o'zlashtirilishi va hakoza misolida ko'rish mumkin.[2]

Olim Farg'ona misolida mil. avv. X-IX asrlarda kichik-kichik "nom" ko'rinishidagi davlatchalar birlashib, hududiy davlat paydo bo'ldi, bu ilk Farg'ona davlatining markazi Dalvarzintepa yodgorligi o'rnida bo'lgan degan xulosaga keladi.

Sug'dda ham sug'orma dehqonchilikka asoslangan ilk shaharmonand qarorgohlar va ular bilan bog'liq bo'lgan "nom" tipidagi kichik-kichik davlatchalar mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi va undan biroz kechroq paydo bo'la boshlanganligi M. Isomiddinov tadqiqotlarida aks etgan. Bu kichik-kichik davlatchalar asosida mil. avv. X-VIII asrlarda Sug'dda ham ilk davlat uyushmalari paydo bo'lgan. Uning poytaxt shahri dastlab Ko'ktepa keyinchalik Afrosiyob o'rnida bo'lganligi mustaqillik yillaridagi ilmiy tadqiqotlar natijasida o'z yechimini topdi.[3]

Bunga o'xshash tarixiy jarayon quyi Amudaryo havzalarida ham yuz bergan. Xorazmning qadimgi davr madaniyatini arxeologik qazishmalar asosida o'rganish o'tgan asrning 30-yillaridan boshlandi. 1937 yildan o'z faoliyatini boshlagan S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik (1945 yildan arxeologiya-etnografik) ekspeditsiyasining ellik yillik ilmiy tadqiqot natijalari qator monografiya, ilmiy to'plam va maqolalarda yoritildi.

So'nggi bronza davriga oid Amirobod madaniyati yodgorliklarining madaniy qatlamlari shu kungacha deyarli yaxshi o'rganilgan va ushbu madaniyatning quyi Amudaryo havzalarida yoyilish sanasi mil. avv. X-VIII asrlar bilan belgilangan. Amirobod madaniyati yodgorliklaridan paxsa yoki xom g'ishtdan qurilgan yer usti qurilishlari aniqlanmagan. Dehqonchilik madaniyati amirobodliklar uchun ma'lum bo'lsada, u hali primitiv qayir dehqonchiligi ko'rinishida edi. Aholi moddiy madaniyati ham hali qadimgi Marg'iyona, Baqtriya va Sug'diyona darajasidan birmuncha quyi bosqichda edi. Xususan, sopol ishlab chiqarishda kulolchilik charxi quyi Amudaryo aholisi uchun hali noma'lum bo'lib, sopol buyumlari qo'lda yasalgan.

Xorazm arxaik davrining boshlang'ich sanasi aniq belgilanmagan. S.P.Tolstov bu davrni mil. avv. VII asr bilan belgilagan bo'lsa,[4] aksariyat tadqiqotchilar uni mil. avv. VI-V asrlar bilan chegaralaydilar. Odatda Xorazm arxaik davrining boshlang'ich sanasi Ko'zaliqir, so'nggi bosqichi esa Qal'aliqir 1 materiallariga qarab belgilanadi.[5]

Amudaryoning har ikkala sohilida arxaik davrga oid ko'plab qishloq manzilgohlarining qayd qilinishi, ushbu davrga kelib hudud aholisining soni va zichligi ko'payganligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida quyi Amudaryo havzasida ilk urbanistik jarayonlarning boshlanishiga zamin bo'ldi. Irrigatsiya tizimlarining paydo bo'lishi Xorazmda davlat birlashmasining tashkil topishi bilan bog'liq

ekanligini ko'rsatadi. Chunki ushbu davrga oid sun'iy sug'orish kanallarining ko'lami Amirobod madaniyati sug'orish tizimlaridan tubdan farq qiladi.

Ahamoniylar istilosidan oldin Xorazmda davlatchilik mavjud bo'lganligi shubhasiz. Fanda buning qator arxeologik asoslari bor. Lekin paydo bo'lgan bu davlat birlashmasining umri fikrimizcha, bir necha o'n yilliklarni o'z ichiga olgan xalos. Keyingi yillarda quyi Amudaryo havzasida avstraliyalik va fransiyalik olimlar bilan hamkorlikda olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, ana shu ilk Xorazm davlatining poytaxti Ko'zaliqir shahri bo'lgan degan fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Negaki bu shahar aholi nisbatan zich joylashgan mintaq va asosiy suv manbasi bo'lgan Amudaryodan ancha olisda joylashgan. Poytaxt shaharni mamlakatning chekka chegara rayonlaridan emas balki harbiy-mudofaa jihatdan qulay, strategik havfsiz ichkari hududlaridan izlash mantiqan to'g'ri. Lekin bugunga qadar poytaxt shaharga qo'yiladigan talablarga har tomonlama to'liq javob beradigan shahar arxeologlar tomonidan qayd qilinmagan. Bu masalada yana bir muhim jihatni ham e'tiborga olish kerak. Ma'lumki, Amudaryo ming yillar mobaynida o'zining quyi oqimiga juda katta hajmdagi allyuvial cho'kindilarni olib kelib yotqizgan. Ba'zi joylarda daryo yotqiziqlarining qalinligi 50-60 metrgacha yetishi aniqlangan. Shu nuqtai nazardan, ehtimol Xorazm davlatining dastlabki poytaxti bugungi o'zlashtirilgan voqa ostida yotgan bo'lishi ham mumkin. Hozircha fanga ma'lum shahar-qal'alarning aksariyati yoki sahroda yoki baland tabiiy tepalik va qirlarning ustida joylashgan.

Arxaik davrning ikkinchi yarmida Xorazm Ahamoniylar tarkibiga kiritiladi.[6] Mil. avv. V asr oxiri – IV asr boshlariga kelib Xorazm Ahamoniylardan mustaqil davlat maqomini olishi munosabati bilan Quyi Amudaryoning har ikkala sohili bo'ylab urbanistik jarayonlar avj oladi. Xiva, Xazorasp, Katta Oybuyirqal'a, Bozorqal'a va Aqchaxonqal'a kabi yirik shahar tipidagi manzilgohlar paydo bo'ladi.[7] Mazkur yodgorliklar yoshi asosan, mil. avv. V-IV asrlar bilan belgilangan bo'lib, ular aksariyatining quyi madaniy qatlamlari hali to'liq o'rganilmagan.

O'rta Osiyo, xususan bugungi O'zbekiston va unga tutash hududlarda ilk davlatchilikning paydo bo'lishi hamda uning tarixiy taraqqiyot bosqichlari masalasida so'nggi yillarda bir qator yangi tadqiqotlar e'lon qilindi. 1998 yildan boshlab an'anaviy tarzda akademik Yahyo G'ulomov nomidagi "O'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi" respublika ilmiy seminari o'tkazib kilinmoqda. Ushbu seminar bugungi kunda 70 dan ortiq yig'ilish o'tkazib, davlatchilik tadqiqotlari borasidagi eng so'nggi yangiliklarini fanga kirityapti. Ammo o'rta maktab, akademik letsey va kasb-hunar kollejlari uchun yaratilgan O'zbekiston tarixi darsliklarida masalamizga oid so'nggi fan yangiliklari yetarli darajada aks ettirilmayapti. Darsliklar har 4-5 yilda yangilangan variantda chop etilsada, ularning mazmuni o'zgarmay qolyapti.

Oliy o'quv yurtlari uchun yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalar ham ana shunday kamchiliklardan holi emas. Jumladan, 2004 yil "Fan" nashriyotida H.Boboyev muallifligida Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari, aspirantlari, shuningdek davlat va huquq tarixi bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan "O'zbek davlatchiligi tarixi" nomli kitob e'lon qilindi. Kitobning annotatsiya qismidagi fikrlarning o'zi juda munozarali. Unda shunday deyiladi: "O'zbek xalqining davlatchilik tarixi dunyodagi qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy kabi davlatlar tarixi bilan barobar bo'lib, bundan taxminan uch-to'rt ming yillar avval shakllangan. Eng qadimgi nomi Turon bo'lib, ularni arablar Eron bilan birga "Ajam" deb yuritganlar. Bugungi O'zbekiston Respublikasi ana shu qadimgi Turon, keyinchalik Turkiston degan nomlar bilan dunyoga tanilgan davlatning markaziy qismida joylashgan bo'lib, uning merosxo'ridir". Ushbu so'zlarni tahlil qiladigan bo'lsak "Turon" bu davlat emas, tarixiy-geografik hududku? "Turkiston" tushunchasi ham tarixiy manbalarda shunday ma'noda ishlatilgan.

Kitobda "Alp Er To'nga (Afrosiyob) davlati hukmdori" nomli maxsus mavzu bor. Mavzuning birinchi matni shunday jumlar bilan boshlanadi: "Turonda markazlashgan davlatni dastlab Afrosiyob – Alp Er To'nga miloddan avval VII asrda (uni eroniylar Afrosiyob deb ataganlar) tashkil etgan va unga rahbarlik qilgan. ... Bu davlatning harobalari hozirgi Samarqand shahri hududida saqlanmoqda (70 bet)".

Kitobning keyingi sahifalarida ham tarix va arxeologiya fanida umume'tirof etilgan ilmiy bilimlarga zid qator jumlar uchraydi. Mana ulardan ba'zilari: "Turonda davlatchilik o'z taraqqiyotida turli davrlarni bosib o'tgan. Qadimgi zamonlarda kuchli, markazlashgan davlat (Afrosiyob) tashkil topgan bo'lsa, antik davrlarga kelib mayda davlatlar tashkil topgani ... kuzatiladi" (80 bet); "Qadimgi Turon davlatchiligining poytaxti Samarqand bo'lgan. Shu bois bugungi O'zbekiston davlatchilik tarixi ham ana shu shahardan boshlanadi" (81-bet); "Markaziy hokimiyatni tashkil etgan Turon davlati Xorazm, Farg'ona vodiysi, Xuroson, Dashti Qipchoq va Sibir kabi katta-katta o'lkalarda navbatma-navbat amal qilganligini yuqorida ko'rdik. Bizning fikrimizcha turkiylar davlatlari qaerda va qachon tashkil topmasin, markazi Samarqand bo'lgan ..." (84 bet).

2014 yilda tarixchi olim Q.Rajabov tomonidan "Alp Er To'nga (Afrosiyob)" deb nomlangan monografiya e'lon qilindi. Asarda muallif Alp Er To'nga (Afrosiyob) tarixiy shaxs, u Turon davlatining dastlabki hoqoni, Buxoro shahrining barpo etilishi Alp Er To'nga tarixi bilan chambarchas bog'liq, ushbu shahar Turon davlatining dastlabki poytaxti – Alp Er Tonganing markaziy shahri bo'lgan. Shuning uchun ham buyuk hoqonning vasiyatiga binoan, y aynan o'zi asos solgan Buxoro tuprog'ga davn etilgan, – degan xulosalarga keladi. [8] Olim o'z fikrlarini qator o'ta asr tarixichi olimlarning asarlaridagi ma'lumotlar bilan dalillaydi. Biroq keltirilgan faktlar afsona va rivoyatlarning asrlar osha avloddan avlodga o'tib o'rta asr muarriflarining asarlariga kirgan bo'lib, bu ma'lumotlarni aniq asoslangan tarixiy ma'lumot sifatida

qabul qilish munozarali masaladir. Chunki qadimgi davr tarixining inkor etib bo'lmagan manbasi bu arxeologik manbalardir. Buxoro shahrida deyarli bir asrdan beri amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar Q.Rajabov fikrlarini tasdiqlamaydi. Bu masalada ya'ni, Afrosiyobning tarixiy shaxs ekanligi xususida tarixchi olimlar hozircha yakdil fikrda emas.

Qadimgi tarix, ilk davlatchilik va ijtimoiy-iqtisodiy hayot voqeliklarini tadqiq qilishda har kim fikrlash va o'z fikrini bayon qilish huquqiga ega. Ammo ilmiy jamoatchilik, so'nggi arxeologik tadqiqotlar natijalarini holisona tahlil qilish har qanday darslik yoki o'quv qo'llanma yozayotgan muallifning burchi bo'lishi kerak.

Oliy o'quv yurtlari notarix yo'nalishlari uchun yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarida yuqorida ko'rsatilganidek jiddiy, munozarali, bahsli fikrlar bo'lmaganda, ularning ichki mazmuniga ilk davlatchilik borasida keyingi yillardagi fan yangiliklari yetarli darajada singdirilmagan. Davlatchilik xronologiyasi bo'yicha turli darsliklarda turlicha sanalar ko'rsatilmogda, hanuzgacha o'tgan asrning 30-40-yillarida muomalaga kiritilgan "Katta Xorazm" davlati tushunchasi keng qo'llanilmogda. Vaholanki, keyingi 20-30 yil davomida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar ushbu konsepsiyaning tarixiy emas, hayoliy-ehtimoliy g'oya ekanligini tasdiqlamoqda.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion yangilik va tadqiqotlarga davlat miqyosida alohida e'tibor qaratilayotgan bugungi kunda oliy o'quv yurtlari uchun ham yangi avlod darslik-qo'llanmalarini yaratish vaqti keldi. Bu borada ustoz-shogird tizimida yosh tadqiqotchilar katta avlod tarixchi, arxeolog va sharqshunos olimlar ishining munosib davomchilari bo'lishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Шайдуллаев Ш. Илк давлатларнинг археологик белгилари // Ўзбекистон тарихи. №3. –Т., 2002. 5 бет.
2. Анорбоев А. Ўзбекистонда илк давлатчилик ва унинг ўрганилиш тарихидаги баъзи муаммолар // Ўзбекистон тарихи. №4. –Т., 2004. 6-7 бетлар.
3. Исамиддинов М. Истоки городской культуры Самаркандского Согда (Проблемы взаимодействия культурных традиции в эпоху раннежелезного века и в период античности). –Т., 2002. – С. 45-46.
4. Толстов С.П. По древним делтам Окса и Яксарта. – М.: «Наука» 1962. – С. 92, 106, 108.
5. Неразик Е.Е. Древние города Хорезма и пути их развития // Центральная Азия. Источники. История. Культура. – М.: Изд-во вост. лит., 2005. – С. 545.
6. Дяконов И.М. Очерк истории древнего Ирана. – М.: Изд-во вост. лит., 1961. – С. 77.

7. Мамбетуллаев М.М. О формировании и развитии городской культуры в Хорезме (VII–II вв. до н.э.) // ТДМК «Приарале на перекрестке культур» и второго полевого семинара «Археология древнего Ташкырманского оазиса». – Нукус – Бустан – Беруни, 2007. – С. 63-65.

8. Ражабов Қ. Алп Эр Тўнга (Афросиёб). -Т.: “O’ZBEKISTON”. 2014. 110-113 б.